

DUNYOQARASHNING TARIXIY SHAKLLARI: MIFOLOGIK, DINIY, FALSAFIY VA ILMIY DUNYOQARASH

*Abdurazzoqova Feruza Kanalovna
Andijon Davlat Universiteti
Umumiy pedagogika kafedrasida katta o‘qituvchisi*

Annotatsiya ushbu ma’qolada dunyo to‘g‘risidagi umumiy g‘oyalar, qarashlar, insonning dunyoda tutgan o‘rni, hayotiy yo‘nalishi, ishonch-e‘tiqodi, ideali, bilim tamoyillari, o‘zi va boshqalarning hayotdagi o‘rnini belgilab olishi, inson mohiyatini, o‘zligini anglashi haqida malumot beradi

Kalit so‘zlar dunyo qarash, g‘oya, din, e‘tiqodi, mif, subyekt dunyosi, obyekt dunyosi,

Annotation in this article, general ideas about the world, views, the place of a person in the world, life direction, belief, ideal, principles of knowledge, defining the place of oneself and others in life provides information about the understanding of human essence and identity

Key words world view, idea, religion, belief, myth, subject world, object world

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganiga mana 32 yil bo‘ldi. O‘tgan yillarida ijtimoiy-siyosiy hayotning hamma jabhalarida: o‘zlikni anglash, ma’naviy – ma’rifiy qadriyatlarni chuqur idrok etish va xalqqa etkazish, yoshlarni Vatanga, xalqqa muhabbat ruhida tarbiyalashda ulkan ishlar amalgam oshirildi. Ma’naviy hayotni yuksaltirishda yoshlarning ta’lim-tarbiyasi, dunyoqarashi, tarixiy o‘tmishimizni, milliy qadriyatlarimizni anglash davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan masalalar sirasiga aylandi. Ayniqsa Prezidentimiz SH.M.Mirziyoev tashabbusi bilan O‘zbekiston uchinchi renessans davri deb atalishi – bu yoshlarga bo‘lgan ishonchini bildirdi.

Dunyoqarash nima? Hamma zamonlarda ham inson oldida uning atrof- muhitga, boshqa odamlarga, o‘z-o‘ziga nisbatan munosabatini belgilovchi savollar ko‘ndalang turadi. Har birimiz unday yoki bunday tarzda ularga duch kelamiz. Bizni o‘rab turgan dunyo nimadan tashkil topgan? Uni bilib bo‘ladimi va agar bilish mumkin bo‘lsa, qay darajada? Insonni o‘zi nima? U qanday bo‘lishi kerak? O‘limdan so‘ng bizni nima kutadi? Dunyoni nima boshqaradi? Dunyoda yovuzlik muqarrarmi? Inson dunyoni o‘zgartira oladimi?

Mana shunday savollarga javoblardan inson dunyoqarashi shakllanadi. **Dunyoqarash - bu insonni o‘rab turgan dunyo va uning unda tutgan o‘rniga nisbatan qarashlar majmuidir.** Dunyoqarashning asosiy masalasi - «Men» (subyekt dunyosi) va «Men - emas» (subyektga nisbatan tashqarida bo‘lgan dunyo) o‘rtasidagi munosabatdir. Dunyoqarash dunyo to‘g‘risidagi umumiy g‘oyalar, qarashlar, insonning dunyoda tutgan o‘rni, hayotiy yo‘nalishi, ishonch-e‘tiqodi, ideali, bilim tamoyillari, o‘zi va boshqalarning hayotdagi o‘rnini belgilab olishi, inson mohiyatini, o‘zligini anglashi haqidagi qarashlar tizimidir.

Dunyoqarashning tuzilishi dunyoni sezish, dunyoni idrok etish va dunyoni tushunish kabi

Dunyoni sezish – bu o‘zini qurshagan dunyoni sezgilar yordamida hissiy idrok etishdir. Bunda tuyg‘ular, kayfiyat dunyoni go‘yoki ranglarga bo‘yaydi, uning obrazini

subyektiv, sof individual sezgilar orqali aks ettiradi. Masalan, bemor odamga haddan tashqari yorug‘ bo‘lib tuyulishi mumkin bo‘lgan nur, sog‘lom odam uchun normal bo‘ladi; daltonik ranglar gammasini ko‘rish qobiliyati normal bo‘lgan odamga qaraganda butunlay boshqacha idrok etadi. Bundan dunyoni sezishning har xil, xususan, optimistik, pessimistik, fojeaviy tiplari kelib chiqadi.

Dunyoni idrok etish – bu atrof- borliqni ideal obrazlarda tasavvur qilishdir. Dunyoni idrok etish to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri bo‘lishi, ya‘ni borliqqa mos kelmasligi mumkin. Bu holda borliq noto‘g‘ri tasavvur qilinadi yoki illyuziyalar, suv parilari, alvastilar, kentavrlar haqidagi tasavvurlarga o‘xshash fantaziyalar paydo bo‘ladi.

Dunyoni tushunish – insonning va uni qurshagan dunyoning mohiyatini aniqlash, shuningdek, tabiatda Yuz beruvchi voqealar va jarayonlarning o‘zaro aloqalarini tushunishga qaratilgan aqliy-bilish faoliyatidir.

Dunyoni sezish va qisman (elementar shakllarda) dunyoni idrok etish nafaqat insonga, balki hayvonlarga ham xos bo‘lsa, dunyoni tushunish esa faqat odamlarga xos xususiyatdir.

Har qanday dunyoqarash tarkibiga: bilim, baholash, e‘tiqod va aqidalar kiradi. Dunyoqarash turli shaklda mavjud bo‘lishi mumkin: kundalik, mifologik, diniy, badiiy, falsafiy va ilmiy tusdagi tasavvurlar. Dunyoqarash shaxsiy ong va ijtimoiy ong dalili tarzida bo‘lishi mumkin. Masalan, afsonaviy dunyoqarash to‘g‘risida gapirganda biz muayyan shaxsning olam to‘g‘risidagi tasavvurlari emas, balki qadimgi zamon jamoasi tasavvurlari haqida fikr yuritamiz. Yohud biz xristianlar, musulmonlar, buddaviylar va boshqa diniy guruhlar dunyoqarashi to‘g‘risida gapiramiz. Shu bois dunyoqarash shaxs, ijtimoiy guruh (diniy, milliy, yoshga oid, jinsiy, kasbiy va b.), davlat, davlatdan tashqari tuzilmalar dunyoqarashi sifatida ham bo‘lishi mumkin.

Tarixiy taraqqiyot turlari jihatidan: 1) afsonaviy (mifologik), 2) diniy, 3) falsafiy qarashlardan va 4) ilmiy dunyoqarashdan iborat.

1) Mifologiya (yunoncha – metos naql, rivoyat logos fikr ta’limot degani) - ibtidoiy ongda voqelikning xayoliy in’ikosidir. Mifologik dunyoqarashda olamning kelib chiqishi, tuzilishi, tabiat va jamiyatning turli hodisa va voqealarini umumlashtirib xayoliy shakllarda tasvirlanishidir. Mifologiya tabiat va ijtimoiy turmushning shunday shaklini o‘zida xalq xayolan g‘ayritabiiy ongsizlarcha badiiy qayta ishlab chiqqan.

Masalan: Gomerning «Iliada», hind eposi «Romayana», o‘zbek xalq eposi «Alpomish» va boshqalar. Bulardan xalqning o‘tmishdagi ijtimoiy – iqtisodiy va ma’naviy – hayoti, madaniyati, urf-odatlarini, an’analarini, axloqiy, diniy, siyosiy qarashlari va tasavvurlari o‘z ifodasini topgan. Bu rivoyat va afsonalarda ijtimoiy ong shakllari to‘la shakllanmagan vaqtda ularning elementlari haqidagi tasavvurlari shaklida o‘z ifodasini topgan.

Mifologik dunyoqarash, birinchidan, muayyan xalqning yoki jamoaning qarashlari, ikkinchidan, unda jamiyatning ma’lum ma’naviy madaniy qadriyatlarini mujassamlashgan. Uchinchidan, unda tabiat va jamiyat bir butun borliqning umumiy birligi, aloqadorligining dastlabki manzarasi o‘z ifodasini topgan.

Mifologiyaga shu narsa xoski, unda hamma narsa bir, yaxlit, ajralmasdir; tabiat narsalari va hodisalari inson bilan ayni bir qonunlarga muvofiq yashaydi, inson bilan bir xil sezgilar, istaklar, mayllarga ega bo‘ladi.

2) Diniy dunyoqarash. Dunyoqarashning tarixan ikkinchi shakli dindir. Din so‘zi arabchadan tarjimada “e‘tiqod, ishonch, ishonmoq” degan ma’nolarni anglatadi. Mif kabi,

din zamirida ham e’tiqod, tuyg‘ular va emotsiyalar yotadi. Garchi din kurtaklari «aqli odam» dunyoqarashi shakllanishining dastlabki bosqichlarida, ya’ni taxminan 40-60 ming yil muqaddam paydo bo‘lgan bo‘lsa-da, umuman olganda u dunyoqarashning mustaqil shakli sifatida keyinroq, jumladan mif ta’sirida insonning abstrakt fikrlash qobiliyati sezilarli darajada kuchaygan davrda vujudga kelgan.

Diniy dunyoqarash odamlarning g‘ayritabiiy narsalar (xudolar, «oliy aql», qandaydir absolyut va sh.k.)ga bo‘lgan e’tiqodiga asoslanuvchi tegishli xulq-atvori va o‘ziga xos harakatlaridir. Agar mifologiyada an’anaga, rivoyat qiluvchining, ya’ni oqsoqolning obro‘sigga e’tiqod kuchli bo‘lsa, dinda g‘ayritabiiy narsalarga e’tiqod birinchi o‘rinda turadi, oliy kuchlar nomidan rivoyat qiluvchi ruhoniylar obro‘si esa ikkinchi darajali rol o‘ynaydi.

3) Falsafiy dunyoqarash dunyoni, borliqni aqliy jihatdan umumlashtirib tushuntiruvchi nazariy qarashlar tizimidir. U diniy dunyoqarashdan farqli ravishda insonning aqliy intellektual faoliyatiga ko‘proq e’tibor beradi. Falsafiy dunyoqarash - bu mantiqiy tahlil va umumlashtirishlar, mantiqiy muhokamalar va xulosa chiqarishlar, mantiqiy asboblardan raddiyalar asosida nazariy fikr dunyoni, borliqni tushunish, tushuntirish, baholash va izohlashdir. Falsafiy dunyoqarash ko‘r-ko‘rona e’tiqodlar, xayoliy obrazlar to‘g‘risidagi tasavvurlar va tushunchalarga emas, balki insonning borliqqa munosabati to‘g‘risidagi erkin, tanqidiy va ayni vaqtda umumiy, aqliy mushohadalarga, nazariy umumlashmalariga asoslanadi. Falsafiy dunyoqarashda inson tabiatning bir qismi sifatidagina emas, balki alohida o‘ziga xos borliq sifatida qaraladi.

Falsafiy dunyoqarash olamga, jamiyatga, insonga bo‘lgan eng umumiy qarashlar tizimidir.

Shunday qilib, taxminan 2500 yil muqaddam dunyoqarashning uchinchi shakli – falsafa paydo bo‘lishi uchun zarur shart-sharoit Yevropa va Osiyoda: Hindiston, Xitoy, Markaziy Osiyo va qadimgi Yunonistonda taxminan bir vaqtda avvalo dunyoni oqilona anglash usuli sifatida vujudga keldi. Dunyoqarashning avvalgi shakllari – mif va dindan farqli o‘laroq, falsafa dunyoni e’tiqod va tuyg‘ularga tayanib emas, balki aql va bilimlarga tayanigan holda tushuntiradi.

4) Ilmiy dunyoqarash. Bilimlarning o‘shishiga qarab har xil muammolar va masalalar soni ham tinimsiz ko‘payib bordi. Bu jarayon fanning rivojlanish sur‘ati yanada jadallashuviga va u falsafadan yanada ko‘proq ajralishiga sabab bo‘ldi. Biroq fan bilimning mustaqil sohasi, dunyoqarashning alohida shakli sifatida faqat XVII-XVIII asrlarda to‘la shakllandi. Muayyan darajada shartlilik bilan shuni aytish mumkinki, bu I.Nyuton klassik mexanikaning asosiy qonunlarini ta’riflab, shu tariqa tabiatshunoslikning asosiy bo‘limi – asoslari asrlar mobaynida shakllangan, bosh tamoyillari esa bundan yuz yilcha muqaddam, avvalo Galileo Galiley tomonidan ta’riflangan klassik mexanikaning shakllanishiga yakun yasaganidan keyin yuz berdi.

Falsafa va fanning umumiy jihatlari shundaki, ular: 1) avvalo aqlga tayanadi va oqilona bilimni yaratishga harakat qiladi; 2) o‘rganilayotgan obyektlar va hodisalarning qonunlari va qonuniyatlarini aniqlashga qarab mo‘ljallanadi; 3) kategoriyalar apparatini yaratadi, o‘zlari ilgari surgan qoidalarni asoslaydi, ularga dalil-isbot keltiradi va yaxlit tizimlarni yaratishga harakat qiladi.

Falsafa va fan o‘rtasidagi farq shunda namoyon bo‘ladiki: 1) falsafa doim u yoki bu faylasuf nomi bilan bog‘lanadi, uning g‘oyalariga qo‘shilishi yoki qo‘shilmaslik masalalariga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Fan esa, o‘z mohiyatga ko‘ra jamoa mehnati

mahsulidir; 2) falsafada (muayyan fandan farqli o‘laroq) yagona til va yagona tizim mavjud emas. Bu erda fikrlar rang-barangligi me’yor sanaladi. Fanda esa monizm hukm suradi, chunki hech bo‘lmasa fanning u yoki bu muayyan sohasidagi asosiy tamoyillar, qonunlar va kategoriyalar tizimiga nisbatan yondashuvlar birligi mavjud bo‘ladi; 3) falsafa ilmiy bilimlar va dalillardan keng foydalanadi, biroq uning uzil-kesil xulosalari ishonchli deb hisoblanishi mumkin emas, asosan faylasuflarning subyektiv fikrlari va mulohazalariga asoslanadi. Fan esa mohiyat e’tibori bilan isbotlangan va sinalgan bilimlar olishga harakat qiladi; 4) falsafiy bilimlarni tajribada sinash mumkin emas; 5) falsafa aniq prognoz bera olmaydi, ya’ni u ishonchli bilimlarni kelajakka tatbiq etishga qodir emas, zero unda bunday bilimlar yo‘q. Ayrim faylasuf falsafiy qarashlarning muayyan tizimi yordamida faqat bashorat qilishi mumkin, lekin u olim kabi prognoz qilish yoki modellashtirishga qodir emas.

4. O‘zbekistonning mustaqillikni qo‘lga kiritganligi, mamlakatda olib borilayotgan islohotlar faylasuflar oldiga zaruriy ravishda yangi muammolarni qo‘ymoqda.

Milliy mustaqillik g‘oyasini va yangi mafkurani shakllantirish bilan bog‘liq ravishda O‘zbekiston faylasuflari oldida muhim vazifalar ko‘ndalang bo‘lmoqda. O‘zbekiston taraqqiyotining hozirgi jihatlarini tadqiq qilishni davom ettirish hozirgi zamon talabidir. Falsafa O‘zbekistonda yashovchi xalqlarning milliy xususiyatlari va yashash tarzining o‘ziga xosligini, mintaqada vujudga kelgan muayyan-tarixiy sharoitni hisobga olgan holda umumiy tushunchalar, insoniyat taraqqiyotining umumiy mantig‘i, ijtimoiy-siyosiy guruhlar, u yoki bu siyosiy g‘oyalar va davlatlarning amaliy faoliyatlaridan kelib chiqib tanqidiy ravishda idrok etishi lozim.

Ijtimoiy borliqning hozirgi zamondagi tub masalalarini, jumladan: birlamchilik nuqtayi nazaridan yangi qurilayotgan jamiyatda shaxs manfaatlari bilan davlat manfaatlarini o‘zaro munosabatini jiddiy nazariy tadqiq qilish kutilmoqda. Falsafiy tadqiqotlarning muammoviy maydonini yanada kengaytirish vazifasi ko‘ndalang turibdi. Hozircha respublikada qadriyatshunoslik, falsafiy antropologiya, din falsafasi, texnika falsafasi, komparativtika falsafasi va hokazolarga bag‘ishlangan jiddiy tadqiqotlar kam. Afsuski, hozirgacha respublikamizning dunyo falsafiy jamiyatidan ajralib qolganligi saqlanib, falsafiy aloqalar G‘arb mamlakatlari va sharq davlatlari olimlari orasida ham, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari bilan ham zaifdir. Shuningdek, mumtoz va zamonaviy falsafiy adabiyotni o‘zbek tiliga hamda vatanimizning eng yaxshi falsafiy tadqiqotlarini chet tillarga tarjima qilishning aniq maqsadga yo‘naltirilgan tizimini joriy etish muhimdir.

Mustaqillik yillarida respublikada «Ta’lim to‘g‘risidagi qonun» doirasida oliy o‘quv yurtlarida falsafiy fanlarni o‘qitishning mazmuni tubdan o‘zgardi. Yangi darslik adabiyotlar nashr etilmoqda.

Respublika olimlari jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy taraqqiyotining hozirgi bosqichi talablariga muvofiq keladigan yangi avlod darsliklarini vujudga keltirishga kirishdilar. Biroq ko‘p hollarda falsafani o‘qitish ma’lum darajada soddalashtirilgan qoliplarda qolib ketmoqda. Zamon taqozosiga ko‘ra, falsafa o‘qituvchilarining kasbiy malakasini oshirish, o‘qitish uslub va vositalarini takomillashtirish yo‘li bilan asosiy maqsadga erishish, ya’ni jahon falsafiy tafakkurini barcha tub mohiyatini har bir talabaga etkazib, ularni mulohaza yuritishga o‘rgatish imkoniyatini vujudga keltirishdir. Zamonamizning bu va boshqa dolzarb masalalari

o‘zining ahamiyati jihatidan mamlakatimiz faylasuflaridan kasbiy va fuqarolik mas’uliyatini talab qiladi.

Adabiyotlar royxati

1. SH.Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Tosh.: “O‘zbekiston”, 2017.
2. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. T.: Ma’naviyat, 2016
3. Sh.O.Madayeva va boshqalar. Falsafa. O‘quv qo‘llanma. – T, 2019. 515 bet
4. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. T.: Yangi asr avlodi, 2016.
4. Xayrullaev M.M. Markaziy Osiyoda ilk uyg‘onish davri madaniyati. T.: Fan. 1994.